MILLIY QADRIYAT VA ZAMONAVIYLIK KATEGORIYALARINING ADABIY-ESTETIK TALQINI

Samadov Sanjar Ro‘ziboy o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika institute O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi

Tayanch doktaranti

Tel:+99891 575 24 94

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlar va zamonaviylik kategoriyalarining adabiy-estetik talqini tahlil qilinadi. Milliylik tushunchasining tarixiy ildizlari, uning badiiy adabiyotda aks etish shakllari hamda zamonaviylik bilan o‘zaro munosabati yoritiladi. Shuningdek, an’anaviy qadriyatlarning bugungi globallashuv jarayonidagi o‘rni, yozuvchilar ijodida milliy ruh va zamonaviy tafakkurning uyg‘unlashuvi misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Maqolada adabiyot orqali jamiyatdagi ma’naviy o‘zgarishlar, estetik qarashlarning yangilanishi hamda milliy o‘zlikni saqlab qolish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar:milliy qadriyatlar, zamonaviylik, adabiy-estetik talqin, badiiy adabiyot, milliylik, globallashuv, an’ana va yangilik, estetik tafakkur, madaniy meros, ma’naviyat.

Аннотация: В данной статье анализируется литературно-эстетическая интерпретация категорий национальных ценностей и современности. Выделяются исторические корни понятия национальности, формы его отражения в художественной литературе и его связь с современностью. Также на примерах рассматривается роль традиционных ценностей в современном процессе глобализации, сочетание национального духа и современного мышления в творчестве писателей. Статья научно и теоретически обосновывает

вопросы духовных изменений в обществе через литературу, обновления эстетических взглядов и сохранения национальной идентичности.

Ключевые слова: национальные ценности, современность, литературно-эстетическая интерпретация, художественная литература, национальность, глобализация, традиция и новаторство, эстетическое мышление, культурное наследие, духовность.

Abstract: This article analyzes the literary and aesthetic interpretation of the categories of national values and modernity. The historical roots of the concept of nationality, its forms of reflection in fiction, and its relationship with modernity are highlighted. Also, the role of traditional values in today's globalization process, the combination of the national spirit and modern thinking in the work of writers are considered on the basis of examples. The article scientifically and theoretically substantiates the issues of spiritual changes in society through literature, the renewal of aesthetic views, and the preservation of national identity.

Keywords: national values, modernity, literary and aesthetic interpretation, fiction, nationality, globalization, tradition and innovation, aesthetic thinking, cultural heritage, spirituality.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Xayriddin Sulton bugungi o‘zbek qissachiligida o‘ziga xos ovoz, o‘ziga xos uslub bilan bir-biridan original asarlar yaratib kelayotgan adiblardan biri. Adib qissalari pishiq va puxtaligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton adabiyotga o‘tgan asrning 70-yillarida kirib keldi. Adib adabiyotimizga yangi mavzular, yangi qahramonlar olib kirdi, uning personajlari nihoyatda tabiiyligi, hayotiyligi, milliyligi va zamon bilan makonning uzviyligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton qissalarida insonning qalb kechinmalari, ruhiy tug‘yonlari milliylikka yo‘g‘rilgan holda tasvirlanadi. Adib o‘z oldiga insonning qalb kechinmalarini, qalb sirlarini yechishni maqsad qilib qo‘yadi. Personajlar haqida

so‘zlar ekan, ular haqida, ularning hayoti haqida batafsil hikoya qilish yo‘lidan bormaydi, balki qahramonlar boshidan kechirgan eng murakkab vaziyatni yoki mana shu vaziyatga daxldor voqeani oladi va shu asosda xarakter yaratadi. Ularning xatti-harakatlari, ichki kechinmalari psixologik jihvirlanadiki, adib oddiy voqea-hodisalar zamiridagi nozik jihatlarni ilg‘ab, ularga muhim ma’no-mohiyat yuklaydi. Milliy ma’naviyatga daxldor, xalqning o‘lmas udum va an’analariga oid muammolar o‘ziga xos yo‘sinda ifodalab beradi. Adibning qahramon tanlashdagi mahorati ham tahsinga loyiq desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ular hayotga endigina qadam qo‘ygan yosh yigit-qizlar, bolalar, umri poyoniga yetayotgan chollar, qariyalar, xokisor, goho jur’atsiz va kamsuqum insonlardir. Shu o‘rinda badiiy obrazga ta’rif berib ketish o‘rinli, albatta. Badiiy obraz – bu badiiy ijodning umumiy kategoriyasi: estetik ta’sir qiluvchi obyektlarni yaratish orqali san’atga xos bo‘lgan hayotni takrorlash, talqin qilish va o‘zlashtirish shakli. Obraz deganda ko‘pincha badiiy yaxlitlikning elementi yoki bo‘lagi, odatda mustaqil hayot va mazmunga ega bo‘lgan parcha tushuniladi. Badiiy obraz tafakkurning alohida shakligina emas, u tafakkur orqali vujudga keladigan voqelik obrazidir. “Badiiy obraz – ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g‘oyasi orqali sintezlashgan voqelikning inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg‘u va kechinmalar timsolida alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga ega in’ikosidan iborat” .

МUНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Xayriddin Sultonning “Onamning yurti” nomli qissa va hikoyalar to‘plamidan joy olgan “Ajoyib kunlarning birida” qissasi o‘zining syujet chizig‘i, qahramonlarning sodda va dilkash tasviri bilan badiiy ahamiyatga egadir. Asar O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlanadi. Qissaning boshlanishidan ham o‘zgacha ruh seziladi: Bu voqea ajoyib kunlarning birida ro‘y berdi. Ochig‘ini aytganda, bu kunni u qadar ajoyib deb bo‘lmasdi: havo sovuq, yer balchiq, yo‘l-yo‘lkalar shilta-shalabbo, samolyotga bilet yo‘q, “Paxtakor” birinchiligaga tushib ketgan… Lekin bari bir bu ajoyib bir kun edi:

odamlar shoshib ishga borar, maydonlarda gala-gala kaptar o‘ynar, do‘konlarda savdo chaqqon, radiodan Munojot “Munojot” ni qarsillatib aytib turar, namchil xiyobonlarda shamsiya tutgan oshiqlar ohista kezardi. Qissada Sulton, Abdulla va Kamolning Nozim Qodirov (Botir Zokirov)ning uyiga borishi, ular birgalikda hayotdan, uzoq bolalik kunlardan so‘z ochishlari, adabiyot va san’at haqidagi qizg‘in suhbatlari juda ta’sirli ifoda etilgan. Hofizning umri poyoniga yetar chog‘ida ohanglari, so‘zlari butunlay yangicha ruhda qo‘shiq aytishni niyat qilganligini aytgan o‘rinlari, Navoiyni umrining kuzida teranroq anglagani, hatto bir g‘azalini o‘qib berib, undan nechog‘likSezyapsizmi? Nigohi qanchalar o‘tkir, teran ekan Navoiyning! Axir, bu butun boshli bir kuz simfoniyasi-ku! Rangga ko‘chirilsa, qanday g‘aroyib manzara bo‘ladi. Bir urinib ko‘rmoqchiman. “Bir xazonlig‘ bog‘ ichinda” deb qo‘yaman nomini… Voqealar rivoji jarayonida obrazlarning o‘zaro munosabatlari – ziddiyatlari, kurashlari, qahramonlarning xarakterlari shakllanadi, obrazlarning eng muhim xususiyatlari yechiladi. “Ajoyib kunlarning birida” qissasidagi syujetning o‘ziga xosligi shundaki, asar sujetida ichki harakat dinamikasi yetakchilik qiladi. Ya’ni qahramonning o‘y – fikrlari, ichki kechinmalari tahliliga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Qissa voqealari, asosan, Sultonning xotira ko‘zgusi orqali tasvirlana yotgan voqealardan iborat. Qahramon umrini qanday o‘tgani, nimalarga ulgurdi-yu hovuchida qanday armonlari qolganini o‘ylaydi. O‘n yetti yil mobaynida shahri azimga qatnab, qanchadan qancha bazmi jamshidlarda, ko‘ngli tilamagan davralarda, safsata bozorlarida kunlari tamaki tutuniday ko‘kka uchgani, mangu yashaydiganday oltin damlarini somondek sovurgani haqidagi o‘ylar uning xayolini o‘g‘irlayveradi. Kasalxona derazasidan boqarkan, beixtiyor hayoti “mazmunsiz romandek zerikarli bo‘lib qolganini, xayoli siyqa va betayin sahifalar uzra tinimsiz kezayotganini payqaydi”. Sizga yoqmagan kitobni istagan paytingiz yopib qo‘ysangiz bo‘lar, lekin umr kitobini… Sulton hayoti davomida ishida, tashvish-u intilishlarida o‘zi anglab yetmagan, anglolganida ham qadriga yetmaydigan bebaho ma’no mujassam edi. U

ertalablari tik oyoqda ichilgan bir piyola choydan tortib boshqarmadagi majlislargacha, ishxonadagi urish, so‘kish-u iltimoslargacha, hazil-mutoyibadan tortib ko‘z yoshlargacha, oshkora va pinhoniy alam-armonlargacha – hammasi hayot kitobining qadr don sahifalari edi. Bularni o‘ylarkan, o‘ziga yopishgan bedavo dard azob bera boshlaydi. Ammo “o‘ylamay yashab bo‘lmaydi, xayol deganning bu qadar mislsiz azob berishini endi ko‘rib turishi”. Bir tomondan odamzodga kulma, yig‘lama, o‘ynama deb amr berish mumkin, lekin boshqa tomondan “o‘ylama” deb aytib bo‘lmasligini tushungandi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xayriddin Sultonovning ilmiy izlanishlari milliy-madaniy leksik birliklarning adabiyot matndagi badiiy, semantik va kulturologik yukini chuqur tahlil qilib xizmat qiladi. U o‘zlanishlarida bu birliklarni xalq tafakkurining akssadosi sifatida baholaydi va adabiyot yangi semantik izlanishlarni ilgari suradi. Sultonov ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida milliylikni, xalqona tilni va madaniyatni badiiy tilda ifodalashning namunalaridan biridir.

Xayriddin Sulton ijodidagi milliylik va zamonaviylikning badiiy uyg‘unligi o‘zbek adabiyotida yangicha estetik tafakkur namunasi sifatida baholanadi. Shoir milliy qadriyatlarni zamonaviy insonning ruhiy izlanishlari bilan uyg‘unlashtirish orqali, o‘z ijodini vaqt, makon va g‘oyaviy chegaralardan ustun darajaga olib chiqadi. Bu sintez — faqat poetik yondashuv emas, balki shoirning dunyoqarashi, hayotga, xalqqa va zamonga bo‘lgan burchining badiiy ifodasidir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Xayriddin Sulton ijodida milliy qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi ijodidagi milliylik va zamonaviylikning badiiy uyg‘unligi o‘zbek adabiyotida yangicha estetik tafakkur namunasi sifatida baholanadi. Shoir milliy qadriyatlarni zamonaviy insonning ruhiy izlanishlari bilan uyg‘unlashtirish orqali, o‘z ijodini vaqt, makon va g‘oyaviy chegaralardan ustun

darajaga olib chiqadi. Bu sintez — faqat poetik yondashuv emas, balki shoirning dunyoqarashi, hayotga, xalqqa va zamonga bo‘lgan burchining badiiy ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Sulton, Xayriddin.** *Tanlangan asarlar*. Toshkent: O‘zbek davlat nashriyoti, 2018.
2. **Aliyev, M.** “Milliy qadriyatlar va zamonaviylik masalalari XX asr o‘zbek adabiyotida.” *Adabiyot va san’at* jurnal, 2020, №4, 45-52-betlar.
3. **Karimova, D. “**Xayriddin Sulton ijodida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi.” *O‘zbekiston adabiyoti* jurnali, 2022, №2, 33-40-betlar.
4. **Qodirov, N.** “Milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi.” *Til va adabiyot* jurnali, 2021, №1, 12-20-betlar.
5. **Ergashev, S.** “Zamonaviy o‘zbek nasrida milliylik va globallashuv.” *Adabiyotshunoslik masalalari*, 2023, №3, 22-29-betlar.
6. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.